

**МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДАГИ ПЕДАГОГИК
ЖАРАЙОНЛАРНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАСHTИРISHДА ЯНГИ ИЛГ’ОР
ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН FOYDALANISH MAZMUNI**

G. Sh. Ibrohimova.

NamDPI. Maktabgacha ta ’lim kafedrasi

o ’qituvchisi Tel: +998 93 0582125

E-mail: gulbadanbegimibrohimova2000@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi mavjud pedagogik jarayonlarni tashkil etishda ilg’or pedagogik tehnologiyalardan foydalanish, ularni amaliyatga qo’llash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan va yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar, ularni oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan vazifalar haqida so’z yuritiladi.

Key words: tehnologiya, pedagogik jarayon, yosh davrlari, “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi, horijiy tajribalar, bola, ta’lim, pedagog, tarbiya.

**CONTENT OF THE USE OF NEW ADVANCED PEDAGOGICAL TECHNIQUES
IN THE FURTHER IMPROVEMENT OF PEDAGOGICAL PROCESSES IN
PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS**

G. Sh. Ibrahimova.

NamSPI. Department of preschool education

teacher Tel: +998 93 0582125

E-mail: gulbadanbegimibrohimova2000@gmail.com

Abstract: this article will talk about the use of advanced pedagogical techniques in the organization of existing pedagogical processes in preschool educational organizations, the difficulties that May and may arise in the process of applying them to practice, the tasks aimed at preventing and eliminating them.

Key words: technology, pedagogical process, Age periods, State curriculum “first step”, foreign experiences, child, education, educator, upbringing.

**СОДЕРЖАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НОВЫХ ПЕРЕДОВЫХ
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДАЛЬНЕЙШЕМ
СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В
ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ**

G. Ш. Ибрагимова.

НамГПИ. Кафедра дошкольного образования

учитель тел: +998 93 0582125

E-mail: gulbadanbegimibrohimova2000@gmail.com

Аннотация: в данной статье речь пойдет об использовании передовых педагогических технологий в организации существующих педагогических процессов в дошкольных образовательных организациях, о возможных и

возникающих трудностях в процессе их применения на практике, о задачах, направленных на их предупреждение и преодоление.

Ключевые слова: технология, педагогический процесс, возрастные периоды, государственная образовательная программа “Первый шаг”, зарубежный опыт, ребенок, образование, педагог, воспитание.

Kirish

Yangi tug'ilgan chaqaloq rivojlanishiga irlsiyat, ta'lim-tarbiya va atrof-muhit keskin ta'sir o'tkazishi hech bir insonga sir emas. Zero, bolaning ta'lim-tarbiya olishi uchun zarur shart-sharoitlar to'g'ri tashkil etilmasa, bu undagi mavjud qobilyatlarning yuzaga chiqmasligiga va hattoki ma'lum vaqtadan so'ng ularning yo'q bo'lib ketishiga olib keladi. Bunday muammolarning oldini olish uchun Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayonlarni to'g'ri va sifatli tashkil etish joiz. So'ngi yillarda esa ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishni yanada takomillashtirish yuzasidan sezilarli tendensiyalar ko'zga tashlanmoqda. Buning natijasida maktabgacha ta'limda mavjud bo'lган pedagogik jarayonlar mazmunini yanda takomillashtirish va boyitish kundan kunga davr talabiga aylanib bormoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalash maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlanadi. 21 asr texnik taraqqiyot asri bo'lganligi sababli barcha sohalar singari ta'lim tizimida ham texnologik bilimga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi. Pedagoglar uchun texnologik tayyorgarlik o'qituvchining texnologik integratsiyadan xabardorligi, bilimi, idrok etishi va unga munosabatini o'z ichiga oladi. Texnik va pedagogik tayyorgarlik o'rgatish va o'qitishda texnologiya integratsiyasi muvaffaqiyatining ikkita muhim tarkibiy qismidir. Maktabgacha ta'limda texnologiyadan samarali foydalanish bolalarning o'rganish va mifik muhitiga o'tishlariga yordam berish potentsialiga ega. Ayniqsa, sinfdagi texnologiya kognitiv va ijtimoiy rivojlanishni yaxshilaydi [1].

Pedagogik jarayonlar o'qituvchilar tomonidan samarali o'qitish va o'rganish tajribasini ta'minlash uchun qo'llaniladigan strategiyalar, usullar va vositalarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonlar o'quv dizayni, baholash usullari, boshqarishni tashkil etish va talabalarning faolligini oshirishni o'z ichiga oladi.

Pedagogik tehnologiyalarga turli shaxslar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan bo'lib, ulardan ayrimlarini quyida keltirib o'tamiz:

“Pedagogik tehnologiya ta'limni tizimlashtirish yoki sinfda o'qitishni tizimlashtirish g'oyalarini pedagogikaga tadbiq etishdan iborat” (T.Sakomoto).

Pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan barcha shaxs, amaliy, uslubiy vositalarning tizimlashgan majmui va ularni faoliyat ko'rsatish tartibi” (M.V.Rlarin).

Xalqaro YuNESKO tashkiloti tomonidan pedagogik tehnologiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: “Pedagogik tehnologiya- ta'lim shakllarini maqbullashtirish uchun inson va tehnik resurslarni hamda ularning o'zaro ta'sirining e'tiborga olgan holda, o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimiyl uslubidir”.[2]

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi mavjud pedagogik jarayonlarni yanada takomillashtirishda yuqorida ta'rifi keltirilgan pedagogik tehnologiyalardan

foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biroq bu jarayonda tabiyachi-pedagoglarning mazkur tehnologiyalar haqida yetarli bilimga ega emasliklari, shuningdek, ularni amaliyotga tatbiq etishda malakalarining yetarli emasligi natijasida ma'lum bir qiyinchiliklar ko'zga tashlanmoqda. Mazkur muammolarning yechimi maktabgacha ta'lif tashkilotlarida faoliyat olib boradigan pedagog kadrlarni ilg'or pedagogik tehnologiyalar haqidagi yangi bilimlar bilan boyitish, ulardan amaliyotda foydalanish yuzasidan ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat bo'ladi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida eng ko'p qo'llaniladigan pedagogik tehnologiyalarga o'yin tehnologiyasi misol bo'ladi. Chunki 3-7 yoshdagi bolalarga ta'lif berishda o'yindan foydalanish kengroq imkoniyat yaratadi. Har bir yosh guruhlari kesimida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida bolaga beriladigan yangi bilimni o'yin asosida berish uning samaradorligini oshishiga hizmat qiladi. Masalan MTT da tashkil etiladigan nutq o'stirish mashg'ulotlarida o'yin tehnologiyasidan foydalanish quyidagicha amalga oshadi:

- Dastlab bolalarga yosh guruhlariga qarab 10 daqiqadan 25-30 daqiqa gacha mashg'ulot o'tiladi;

- Mashg'ulotni o'tish mobaynida turli xildagi interfaol metodlardan, usullar va uslublardan foydalaniladi;

- Shuningdek, o'tilgan mashg'ulot orasida bolalarni tetiklashtirish uchun jismoniy daqiqalar tashkil etiladi;

- Mashg'ulot doirasida didaktik o'yinlar tashkil etiladi.

Shuningdek, “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi ham maktabgacha ta'lif tashkilotlaridagi mavjud pedagogik jarayonlarni yanada takomillashtirishda yangi ilg'or pedagogik jarayonlardan foydalanishni nazarda tutadi hamda mazkur tehnologiya na'munalaridan sanaladigan o'yin texnologiyasini 5 ta rivojlanish sohalari:

- Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

- Ijtimoiy-hissiy rivojlanish;

- Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalarini shakllantirish;

- Bilish jarayonlarini rivojlanishi;

- Ijodiy rivojlanish.

va 5 ta rivojlanish markazlari:

- Qurish, yasash, konstruksiyalash, matematika markazi;

- Syujetli-rolli o'yinlar va drammalashtirish markazi;

- Ilm-fan va tabiat markazi

- Til va nutq markazi

- San'at markazida tashkil etish yuzasidan ko'nikmalarini hosil qilishni o'z ichiga oladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Maktabgacha ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, sohaga berilayotgan e'tibor, xususan takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o'quv dasturining amaliyotga joriy etilishi ulg'ayib kelayotgan yosh avlodning sifatli ta'lif va tarbiya olishi uchun munosib zamin vazifasini o'taydi deb umid qilamiz [3].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining texnologik tayyorgarligi Maximudova Nargiz Djumaniyazovna Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi dotsenti.,p,f.n. Xorazm viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi.
2. Abdullayeva Sh., Sodiqova A., Yangi pedagogik tehnologiyalar. – T.:2009. – 131.
3. Gulbadanbegim Ibrohimova Takomillashtirilgan ilk qadam davlat o’quv dasturidan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida foydalanish (Maqola) Ta’lim va taraqqiyoti (No 045 044) ilmiy-uslubiy jurnal.
4. Ilk qadam davlat o’quv dasturi (Takomillashtirilgan ikkinchi nashr) – T.: 2022. – B.12.
5. Shodmonova Sh.S., Ergashev P.S. Qiyosiy pedagogika (Metodik qo’llanma) – T.: 2005. –B.153.
6. Qodirova F. R., Toshpo’latova Sh. Q., Qayumova N.M., A’zamova M. N. Maktabgacha pedagogika. – T.: Tafakkur, 2019.–B.683.
7. Sodiqova Sh., Maktabgacha pedagogika. – T.: Tafakkur bo’stoni, 2013.–B.290.
8. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. Science and Education, 4(5), 988-992.
9. qizi Kamolova, A. O. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. Science and Education, 4(5), 988-992.
10. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O’smirlar o’tasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o’ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 4(2), 969-972.
11. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. Science and Education, 4(5), 988-992.